



# Farg'ona viloyatida

## kichik tadbirkorlik



(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – sentabr

- 2020-yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **65,1 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,2** birlikni tashkil qildi.
- 2020-yilning yanvar-sentabrida 5,1 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,4** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 2164 ta, sanoatda 1219 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 383 ta, qurilishda 346 ta, yashash va ovqatlanishda 322 ta, axborot va aloqada 131 ta tashkil etilgan.

### 2020 – yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



## Yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+/-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>28583</b>	<b>33307</b>	<b>4724</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>5747</b>	<b>5094</b>	<b>-653</b>
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YaHM	%	66,6	65,1	-1,5
Sanoat	%	39,6	39,4	-0,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,8	96,9	-0,9
Investitsiya	%	61,2	63,8	2,6
Qurilish	%	86,5	91,3	4,8
Savdo	%	88,6	88,6	0,0
Xizmatlar	%	72,8	69,5	-3,3
Yuk tashish	%	95,6	94,2	-1,4
Yuk aylanmasi	%	96,9	95,3	-1,6
Yo'lovchi tashish	%	95,0	97,0	2,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,2	97,5	1,3
Eksport	%	53,9	58,6	4,7
Import	%	76,8	69,0	-7,8



### 2020 – yilning yanvar – sentabrdagi kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Farg'ona shaharda – 697 ta, Qo'qon shaharda – 522 ta, Marg'ilon shaharda – 474 ta, Oltiariq tumanida – 274 ta, Quva tumanida – 274 ta va Toshloq tumanida – 265 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich So'x tumanida – 127 tani tashkil etgan.

## Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	2019 – yil yanvar -sentabr	2020 – yil yanvar - sentabr	(+;-)
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>5747</b>	<b>5094</b>	<b>-653</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	890	697	-193
Qo'qon	687	552	-135
Quvasoy	198	198	0
Marg'ilon	545	474	-71
<i>tumanlar:</i>			0
Oltiariq	332	274	-58
Qo'shstepta	165	178	13
Bag'dod	217	231	14
Buvayda	280	253	-27
Beshariq	181	210	29
Quva	359	274	-85
Uchko'rlik	274	234	-40
Rishton	230	211	-19
So'x	75	127	52
Toshloq	235	265	30
O'zbekiston	271	219	-52
Farg'ona	285	199	-86
Dang'ara	290	211	-79
Furqat	128	139	11
Yozyovon	105	148	43



**2020 – yil yanvar – sentabr holatiga ko'ra yangi  
tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020 - yilning yanvar - sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahri - 13,7 %, Qo'qon shahar - 10,8 %, Marg'ilon shahar - 9,3 %, Oltiariq va Quva tumani - 5,4 %, Toshloq tumani - 5,2 %, Buvayda tumani - 5,0 %, Uchko'prik tumani - 4,6%, Bag'dod tumani - 4,5 %, O'zbekiston tumani – 4,3 % ga tegishli.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- sentabr	2020 - yil yanvar- sentabr	(+;- )
Jami	5747	5094	-653
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	206	383	177
Sanoat	1434	1219	-215
Qurilish	420	346	-74
Savdo	2634	2164	-470
Tashish va saqlash	223	129	-94
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	365	322	-43
Axborot va aloqa	76	131	55
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	81	108	27
Boshqa faoliyat turlari	308	292	-16

**Ma'lumot uchun:** 2020 – yilning yanvar – sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 - yil yanvar-sentabr	2020 - yil yanvar- sentabr	Farqi (+;-)
<b>Farg'ona sh.</b>	890	697	-193
<b>Qo'qon sh.</b>	687	552	-135
<b>Marg'ilon sh.</b>	545	474	-71
<b>Oltiariq tumani</b>	332	274	-58
<b>Quva tumani</b>	359	274	-85
<b>Toshloq tumani</b>	235	265	30
<b>Buvayda tumani</b>	280	253	-27
<b>Uchko'prik tumani</b>	274	234	-40
<b>Bag'dod tumani</b>	217	231	14
<b>O'zbekiston tumani</b>	271	219	-52

2020 – yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar eng ko'pi Farg'ona shahrida – 697 taga yetdi.




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda






## Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga ko'ra\*




2020 – yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 20,5 birlik, Qo'qon shahrida 17,7 birlik, Quvasoy shahida 17,4 birlik. Marg'ilon shahrida 16,1 birlik, Dang'ara tumanida 15,4 birlik, Furqat tumanida 15,4 birlik, Quva tumanida 14,7 birlikni tashkil etgan. Beshariq tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,4 birlikka to'gri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




**2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\***



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



## 2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni\* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 20,5 birlik, Qo'qon shahrida 17,7 birlik, Quvasoy shahrida 17,4 birlik, Marg'ilon shahrida 16,1 birlik, Dang'ara tumanida 15,4 birlik, Furqat tumanida 15,4 birlik, Quva tumanida esa 14,7 birlikni tashkil etdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Bundan ko'rinish turibdiki, Farg'ona shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Beshariq tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - sentabr holatiga ko'ra, % da

2020 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 65,1 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar – sentabrida 66,6 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



## Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2020 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>39,4</b>	<b>91,3</b>	<b>69,5</b>	<b>63,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	16,4	93,6	42,0	33,9
Qo'shon	20,6	78,2	89,2	65,7
Quvasoy	17,2	75,6	93,7	33,2
Marg'ilon	79,1	88,2	98,1	72,9
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	100,0	99,8	91,1	65,0
Qo'shtepa	63,8	87,4	98,4	21,2
Bag'dod	61,6	96,6	96,0	57,7
Buvayda	100,0	99,6	97,8	90,4
Beshariq	50,6	80,4	93,5	79,3
Quva	50,6	99,4	90,1	95,5
Uchko'rik	99,7	99,3	95,2	92,8
Rishton	74,6	98,4	87,9	71,7
So'x	100,0	99,8	98,3	48,1
Toshloq	16,2	99,6	92,7	94,5
O'zbekiston	83,7	99,5	95,2	96,6
Farg'ona	63,3	98,8	92,9	70,8
Dang'ara	100,0	95,5	95,1	94,5
Furqat	100,0	99,6	95,7	95,1
Yozyovon	100,0	63,6	99,0	50,9

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Oltiariq (100,0 %),  
Buvayda (100,0 %),  
So'x (100,0 %),  
Dang'ara (100,0 %),  
Furqat (100,0 %),  
Yozyovon (100,0 %)  
va Uchko'rik (99,7 %)  
tumanlarida.

**Quri lishda-**

So'x (99,8 %),  
Oltiariq (99,8 %),  
Furqat (99,6 %),  
Buvayda (99,6 %),  
Toshloq (99,6 %),  
O'zbekiston (99,5 %)  
va Quva (99,4 %)  
tumanlarida.

**Xizmatlarda-**

Yozyovon (99,0 %),  
Qo'shtepa (98,4 %),  
So'x (98,3 %),  
Marg'ilon sh. (98,1%)  
Buvayda (97,8 %),  
Bag'dod (96,0 %) va  
Furqat (95,7 %)  
tumanlarida.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar-sentabrida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5833,4 mlrd.so'm (jami sanoat ishlab chiqarishning 39,4 % i) ni tashkil qildi;
- 2 5354,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 63,8 % i) o'zlashtirildi va 2019 - yilning yanvar-sentabriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi;
- 3 3493,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiylajmining 91,3 % i) bajarildi va 2019 - yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil qildi;
- 4 6706,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 69,5 % i), 2019 - yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 98,9 % ni tashkil qildi;
- 5 chakana savdo aylanmasi umumiylajmining 88,6 % i yoki 9823,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 96,7 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 233,8 mln. AQSH dollarasi (umumiylajmining 58,6 % i) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,0 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,3 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasi esa 6,9 % ga (umumiylajmining 97,5 %) kamaydi.




## Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Oltiariq tumanida – 100,0 %, Qo'shtepa tumanida – 100,0 %, Bag'dod tumanida – 100,0 %, Buvayda tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, O'zbekiston tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 15,5 % ni tashkil etdi.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yozyovon tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Dang'ara tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, Uchko'prik tumanida – 100,0 %, Buvayda tumanida – 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida - 10,7 % ni tashkil etdi.



## 2020 – yilning yanvar –sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (831,1 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (796,5 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (581,0 mlrd. so'm) Qo'qon shahar (481,3 mlrd. so'm), va Dang'ara tumani (390,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (51,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






## 2020 – yil yanvar – sentabr holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oltiariq tumani (100,0%), Buvayda tumani (100,0 %), So‘x tumani (100,0%), Dang‘ara tumani (100,0%), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Uchko‘prik tumani (99,7 %), O‘zbekiston (83,7 %) tumanlari va Marg‘ilon (79,1 %) shahri tashkil etdi. Toshloq tumanida (16,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




## 2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri - 1969,5 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,2 %), Qo‘qon shahri 1416,5 mlrd. so‘m (96,4 %), Marg'ilon shahri 1056,5 mlrd. so‘m (99,9 %) va Quva tumani 546,6 mlrd. so‘m (98,4 %) ni tashkil etdi.




## 2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Tuman ko'p bajarilgan qurilish va shaharlar bo'yicha eng ishlari hajmi Farg'ona shahri - 954,9 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 126,9 %), Qo'qon shahri – 478,8 mlrd. so'm (88,7 %), Bag'dod tumani – 233,0 mlrd. so'm (95,2%), Qo'qon shahri – 210,4 mlrd. so'm (93,1%) hamda Oltiariq tumani – 181,5 mlrd. so'm (117,4 %) qayd etildi.



## 2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri – 1893,5 mld. so'm (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 93,0 %), Qo'qon shahri 1059,8 mld. so'm (99,0%), Marg'ilon shahri 891,7 mld. so'm (102,1 %), Oltiariq tumani 253,4 mld. so'm (98,8%), Uchko'prik tumani 251,5 mld. so'm (104,8%), hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1260 ta respondentlar ishtirok etdi.

### 2020 – yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2,5 % (31 ta), sanoatda – 22,4 % (282 ta), qurilishda – 8,9 % (113 ta), savdoda – 35,9% (452 ta), xizmatlar sohasida – 30,3 % (382 ta) ni tashkil etdi.


\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020 – yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonada 22,9 punktga, xizmatlar sohasida 17,0 punktga, savdo korxonalarida 13,8 punktga, sanoatda 10,6 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 6,8 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, barcha faoliyatda, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 0,8 punktga, sanoatda 0,4 punktga, savdo korxonalarida 0,2 punktga oshdi.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 – yilning III choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 121 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 29 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 23,9 % i), qurilish – 9 ta (7,4 % i), savdo – 51 ta (42,2 % i), xizmatlar – 23 ta (19,0 % i) va qishloq, o‘rmon va baliqchilik ho‘jaligi – 9 ta (7,4 % i).

### 2020 – yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da






### 2020 – yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



### 2020 – yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 33,3 punktga, qurilish korxonalarida 17,1 punktga, sanoat korxonalarida 15,0 punktga oshgan bo'lsa, qolgan faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 44,4 punktga, qurilish korxonalarida 17,1 punktga, sanoat korxonalarida 14,5 punktga, savdo korxonalarida 7,7 punktga pasaygan bo'lsa, qolgan faoliyat turlari bo'yicha o'sish kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoatda 0,5 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatilgan bo'lib, qishloq, o'rmon va baliqchqliqchilik xo'jaligida (11,1 punktga), xizmatlar sohasi (6,5 punktga), va savdo (1,2 punktga) korxonalarida iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

### 2019 – 2020 – yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda 17,2 punktga ko'paygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, barcha faoliyat turlarida, yaqin uch oydagি iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda 12,6 punktga ko'paygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat korxonalarida 2,4 punktga kamaydi.

